



Hindistonning Informatika milliy markazi elektron hukumat bo'yicha o'z loyihalarini mamlakatimizda amalga oshiradi

2018-yil 10-dekabr kuni «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazida (Markaz) Hindistonning Informatika milliy markazi (NIC) direktori o'rinbosarlari Ranjna Nagpal, IPS Sethi, B. Vinaya hamda Hindiston elchixonasi vakillari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Markaz direktori o'rinbosari M.Rasulov boshchilik qilgan uchrashuvda departamentlar rahbarlari va xodimlari ham ishtirok etdilar. Avvalo, M.Rasulov mehmonlarni O'zbekistondagi elektron hukumat arxitekturasini bilan yaqindan tanishtirdi. Shuningdek, aholiga ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari, One ID identifikatsiyalash yagona tizimi hamda davlat xizmatlari portali — bir darcha.uz haqida atroflicha ma'lumot berdi.

Mehmonlar yuritimizda elektron hukumat tizimini rivojlantirishda davlat boshqaruvini yetakchi texnologik yechimlar orqali yaxshilash borasidagi o'z bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.


Yig'ilishdahamkorlikda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan bir qancha loyihalar muhokama qilindi.

Big Datani elektron hukumat tizimida tatbiq etish ana shunday loyihalar qatorida bo'lib, u dasturiy modul yaratilishini nazarda tutadi. Bu esa o'z navbatida, alohida ma'lumotlar, shu jumladan, data.gov.uz saytida chop etilgan ma'lumotlar oqimida bog'liqlikni aniqlashga xizmat qiladi, natijada davlat organlarining axborot tizimlarida nosozliklarni oldindan bilish imkonini tug'iladi. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

- muntazam yangilanib turiladigan ma'lumotlarni to'plash va saqlash;
- sifat nazorati va ulkan ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni optimallashtirish.

Ushbu modul orqali elektron hukumat tizimida ulkan ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash uchun yagona texnologiyani amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari, elektron hukumat infratuzilmasida IaaS va SaaS bulutli texnologiyalarini joriy etish hamda S3WaaS (davlat idoralari veb-saytlari boshqaruvi), Manav Saparanda (elektron boshqaruvchi), Darpan (loyihalarni tahliliy ko'rib chiqish uchun konsol) kabi Hindistonning texnologik mahsulotlarini joriy etish masalasi ham muhokama qilindi.

Uchrashuv so'ngida tomonlar loyihalarni «Yo'l xaritasi» doirasida bosqichma-bosqich amalga oshirishga kelishib olishdi. Ushbu tashrif doirasida Markaz xodimlari uchun NIC faoliyatiga bag'ishlangan seminar ham tashkil etildi.

Mehmonlar Informatika milliy markazi, uning tashkil etilish tarixi, tuzilmasi hamda «Digital India» loyihasi haqida Markaz xodimlariga batafsil ma'lumot berdilar. Davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshiruvchi shaffoflikni ta'minlash borasidagi o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishdi. Tadbir yakunida markaz xodimlari foydali ma'lumotlar uchun hindistonlik ekspertlarga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi. 

Manba: www.egovernment.uz

